

URUSH MOTIVINING INVARIANT VA VARIANT XUSUSIYATLARI

Mahmudova Nilufar

Mustaqil tadqiqotchi.

mahmudovanilufar800@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19073106>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri sanalmish motiv konsepsiyasi hamda uning nazariy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotda motiv tushunchasining xususiyatlari hisoblangan invariant (o'zgarmas birlik) va variant (badiiy o'zgarish) A.Veselovskiyning genetik-tarixiy va B.Tomashevskiyning struktur-funksional nazariyalari asosida izchil o'rganiladi. Bundan tashqari, zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari yordamida, motivning ahamiyati, uning badiiy matn qurilishidagi o'rni yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: motiv, invariant, variant, struktur tahlil, syujet, fabula, tarixiy poetika, badiiy talqin.

Аннотация. В данной статье исследуется концепция мотива – одной из важнейших категорий литературоведения, а также её теоретические основы.

В исследовании последовательно анализируются такие характеристики понятия мотива, как инвариант (неизменная единица) и вариант (художественная трансформация), на основе генетико-исторической теории А. Веселовского и структурно-функциональной теории Б. Томашевского. Кроме того, с использованием современных методов литературоведения раскрывается значение мотива и его роль в построении художественного текста.

Ключевые слова: мотив, инвариант, вариант, структурный анализ, сюжет, фабула, историческая поэтика, художественная интерпретация.

Annotation. This article examines the concept of motif, which is considered one of the important categories of literary studies, as well as its theoretical foundations. The study consistently analyzes the key characteristics of the concept of motif – namely, the invariant (constant unit) and the variant (artistic transformation) based on A. Veselovsky's genetic-historical theory and B. Tomashevsky's structural-functional theory. In addition, using modern methods of literary analysis, the significance of the motif and its role in the construction of the literary text are elucidated.

Key words: motif, invariant, variant, structural analysis, plot, fabula, historical poetics, artistic interpretation.

Motiv kategoriyasi adabiyotshunoslikning nazariy asoslaridan hisoblanadi.

Ushbu tushunchani badiiy matnning mazmuniy mundarijasini belgilab beruvchi asosiy birlik deb ham sanashimiz mumkin. Akademik A.Veselovskiyga ko'ra esa motiv "poetik tilning eng sodda, bo'linmas birligi"¹. Olim shuni ta'kidlaydiki, motiv insoniyat badiiy tafakkurining dastlabki bosqichlarida voqelikka berilgan javob.

¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 300

Bu tushunchani shunday izohlash mumkinki, go'yo u o'zgarmas obrazli formula bo'lib, syujetlar to'qimasini shakllantiruvchi asosiy atom vazifasini o'taydi².

Ushbu nazariyani chuqurroq anglashimiz uchun invariant va variant tushunchalariga izoh berish lozim. Invariant – bu motivning matndan matnga, tildan tilga o'zgarmay o'tuvchi hamda takrorlanib keluvchi ma'noviy yadrosidir. Masalan, urush she'riyatidagi vatan himoyasi yoki qahramonlik motivlari invariant (o'zgarmas) tabiatga ega. Ya'ni, ancha yillar o'tsa ham baribir urush she'riyatida shu motivlar qayta takrorlanadi, o'zgarmaydi. Variant (o'zgarish) esa mazkur invariantning muallif tomonidan aniq badiiy asarda o'ziga xos uslub, detallar va obrazlar yordamida shakllantirilgan va o'zgartirilgan ko'rinishidir. Bunda muallif o'zi yashagan davr, o'ziga xos uslub bilan asarni boyitadi. Ya'ni, invariant – matnning asosiy va muhim “poydevori” bo'lsa, variant – uning ustiga qurilgan “badiiy dizayn”dir.

Motiv konsepsiyasining o'rni bugungi zamonaviy filologiya sohasida juda beqiyos.

Shunday bo'lsa-da, uning xususiyatlarini (invariant va variant) klassik nazariyalar asosida o'rganib chiqish hali-hanuz dolzarb muammolardan bir bo'lib qolmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada biz motiv tushunchasi va uning nazariy ildizlarini ikki adabiyotshunos A.Veselovskiy va B.Tomashevskiy qarashlari misolida ko'rib chiqishni hamda qanday o'xshash va farqli tomonlari borligini aniqlashni maqsad qildik. Zero, badiiy voqelikning asl (invariant) mohiyatini tushunmay turib, ijodiy jarayonning mantiqiy modelini to'la to'kis ochib berib bo'lmaydi.

So'z motiv konsepsiyasi va uning evolutsiyasi haqida borar ekan, dastlab uning genezisiga, ya'ni uning kelib chiqishiga e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, A.Veselovskiy uchun motiv konsepsiyasi “bo'linmas birlik”. Buning izchilligi shundaki, olim ijodning genetik kodini ham motiv deb ataydi. Misol tariqasida urush she'riyatiga xos qurbonlik va shahidlik yoki yor sog'inchi hamda sadoqat motivlarini olishimiz mumkin. Bu yillar o'tsa hamki, urush adabiyotida o'zgarmay kelayotgan ma'naviy “g'isht” (invariant yadro) hisoblanadi. Dunyoda minglab ertak va dostonlar bor, lekin ularning ichidagi voqea chizig'i, ya'ni ularning sxemasi deyarli bir xil. Veselovskiy demoqchiki, shoir yoki yozuvchi yangi motiv o'ylab topmaydi, balki insoniyat tarixida bor bo'lgan o'sha yovuz dushman ustidan g'alaba kabi tayyor qoliplardan foydalanadi. Shu o'rinda, maqolamizda biz “Asar qanchalik yangi bo'lmasin, uning zamirida qadimiy, o'zgarmas bir yadro yotadi”³, demoqchimiz.

Ammo adabiyotda bo'layotgan taraqqiyot faqatgina o'zgarmas qoliplardan iborat emas.

Ushbu nazariyani strukturalistik jihatdan rivojlantirgan V. Propp motivni “motiv – personajning asar syujeti mantiqini belgilovchi funksiya”,⁴ – deya tasvirlaydi. Olimning fikricha, “funksiya” deganda personajning harakatini, uning hikoya davomidagi ahamiyati va syujet rivojidagi o'rni nuqtai nazaridan tushunish lozim”⁵ Bu urush she'riyatidagi qurbonlik motive, asarlar qanchalik turli bo'lmasin, ularning invariant yadrosini tashkil etishini asoslaydi. Motivning an'anaviylik va matnlararo aloqadorlik xususiyatlarini tadqiq etgan B.N.Putilov esa uni alohida matn chegarasidan olib chiqib, “madaniy-tarixiy kod” sifatida baholaydi.

² Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 300.

³ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 300–301.

⁴ Пропп В. Я. Морфология сказки. – Л.: Academia, 1928. – С. 30.

⁵ Пропп В. Я. Морфология сказки. – Л.: Academia, 1928. – С. 30.

Olim ta'kidlashicha, "motiv alohida matn doirasida emas, balki uzoq yillik epik an'ana va xalq xotirasi tizimida mavjud bo'ladi"⁶. Bu esa o'zbek va ingliz urush she'riyatidagi yor sadoqati yoki vatan himoyasi kabi motivlarning folklordan yozma adabiyotga o'tgan barqaror semantik bloklar ekanligini tushuntiradi.

Shu bilan birga, V.M. Jirmunskiy motivni nafaqat syujet bo'lagi, balki asarning "tematik va estetik birligi" deb hisoblaydi. Uning qayd etishicha, "motiv – bu badiiy asar mavzusining eng kichik, ammo mazmunan to'laqonli elementidir"⁷. Jirmunskiy yondashuvi urush she'riyatidagi maishiy-psixologik tasvirlarni shunchaki detal emas, balki asarning g'oyaviy-estetik qimmatini belgilovchi variantiv modellar sifatida o'rganishga zamin yaratadi.

B.Tomashevskiy o'zining funksional nazariyasi orqali Veselovskiyning "tarixiy turg'unlik" g'oyasi bilan munozaraga kirishadi. Uning o'rniga bu nazariyani o'zining dinamikasi bilan to'ldirmoqchi bo'ladi. Tomashevskiy motivni asarning texnik qurilish materiali sifatida ko'radi⁸. Ya'ni, motiv tushunchasi Veselovskiy uchun "tarix" bo'lsa, Tomashevskiy uchun u – "asbobdir". Buni yana ham kengroq tushuntiradigan bo'lsak, Veselovskiy matnning "poydevori" (eski hamda invariant – o'zgarmas qismi) haqida so'z yuritsa, Tomashevskiy o'sha poydevor ustiga qurilgan "zamonaviy dizayn" haqida gapiradi. Tomashevskiy nazdida yozuvchi motivni asar yozish uchun asbob (skalpel yoki bolg'a) sifatida ishlatadi. Ya'ni yozuvchi motivni shunchaki saqlamaydi, uni asarni chiroyli qilish uchun o'zgartiradi: qirqadi yoki bezaydi.

Bu jarayonni Tomashevskiy "erkin motivlar" deb ataydi. Ya'ni bunda Vatanni sog'inish yoki sevish kabi Veselovskiy aytgan invariant yadro Tomashevskiy orqali variantiv modifikatsiyaga aylantiriladi. Bu orqali o'sha sog'inchni qanday tasvir etilishi o'quvchiga yetkaziladi. Masalan, sog'inchning shamol orqali, xat orqali yoki tush orqali berilishi bular variantlardir. Syujet o'zgarmaydi (qahramon baribir sog'inyapti), lekin asarga "badiiy bo'yoq" (estetika) beradigan narsa aynan shu variantlardir. Veselovskiy nazariyasi biroz "qotib qolgan" (statik). Tomashevskiy esa unga "qon yugurtiradi". Aynan shu jarayonni dinamika deb atashimiz mumkin. U yozuvchiga erkinlik beradi. Bu haqda: "Sen o'zgarmas motivni olgin-u, uni o'z uslubing bilan shunday variantlaginki, o'quvchi hayratda qolsin"⁹, – deydi olim.

Zamonaviy adabiyotshunoslarimiz, xususan, E.Meletinskiy va Y.Lotman, ushbu ikki xil qarashni o'z tadqiqotlarida davom ettirdilar. Meletinskiyga ko'ra, motiv tushunchasi yaxlit bir sistema. U invariant yadro va variantiv qobiqdan tashkil topgan¹⁰. Uning fikricha, biz motivni tarixiy (eski) yoki texnik (yangi) deb ajratmasligimiz kerak, chunki u ikkisidan tashkil topgan yaxlit bir sistema. Lotman esa bu jarayonni semantik maydon bilan bog'laydi hamda motivning variantivligini muallif tomonidan "chegarani kesib o'tish"ning o'ziga xos usuli deb hisoblaydi.¹¹

Bundan tashqari, O'zbek adabiyotshunosi D. Quronov ham bu tadqiqotga o'z hissasini qo'shgan.

⁶ Путилов Б. Н. Эпическое сказывание: Типология и этническая специфика. – М.: Восточная литература, 1997. – С. 142.

⁷ Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. С. 17

⁸ Томашевский Б.В. Теория литературы. – Л.: Государственное издательство, 1925. – С. 138-139.

⁹ Томашевский Б.В. Теория литературы. – Л.: Государственное издательство, 1925. – С. 139-140

¹⁰ Мелетинский Е.М. О литературных архетипах. – М.: РГГУ, 1994. – С. 68-72.

¹¹ Lotman Y.M. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 232

U bunday izchillikni zaminga ko‘chiradi hamda “syujetning eng kichik, bo‘linmas zarrasi” deya baholaydi.¹² Olim shunday yondashadiki, motiv asarda nafaqat mantiqiy qurilishni ta‘minlab beruvchi vosita sifatida gavdalanadi, balki muallif ilgari surayotgan konseptual ma‘noni ham o‘zida mujassam etadi. Bu o‘z o‘rnida bizga o‘zbek she‘riyatidagi an‘anaviy motivlarning ham tarixiy, ham yangi davr talqinlarini bir paytning o‘zida yaxlit tadqiq qilish imkonini beradi.

Motiv tushunchasi urush davri adabiyotida ijod qilingan, ayniqsa, she‘riyat olamida yaqqol namoyon bo‘ladi. Sabab shundaki, urush faqat individual voqeagina emas, balki u takror va takror insoniyat xotirasida namoyon bo‘laveradigan tarixiy jarohatdir. Shuning uchun aytishimiz mumkinki, motivlarning invariant yadrosi hamda variantiv talqinlari urush mavzusidagi badiiy matnlarda aniq kuzatiladi. Masalan, invariant (o‘zgarmas) motiv sifatida A.Veselovskiy nazariyasi asosida quyidagilarni aytish mumkin:

- jangga ketish ammo qaytmaslik;
- bevalik va yetimlik hissi;
- vatanni sog‘inish;
- sadoqat va kutish;
- o‘lim.

Bundan tashqari, “jangdan qaytmagan yigit” motivi, necha yillar o‘tsinki, hali-hanuz bor.

Bu motiv qadim epik dostonlardan tortib XX asr she‘riyatigacha o‘zgarmay kelishga ulguragan yadroviy formuladir. Ushbu motiv Abdulla Oripov she‘riyatida ham kuzatiladi. Shoirning “Ayol” she‘rida shunday misralarni o‘qiymiz:

*Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u*¹³.

Bu yerda biz syujet yangilanganini ko‘rmaymiz, ya‘ni, qahramon jangdan qaytmagan.

Biroq B.Tomashevskiy fikr bildirganidek, motivning badiiy qiymati aynan uning variantida namoyon bo‘ladi. Ushbu she‘rda urush voqealari front oldi manzaralari bilan berilmaydi balki sadoqat, bevalik, ichki sukunat, uzoq yillar davom etib kelgan iztirobli kutish hamda muzday umr obrazlari orqali o‘quvchiga namoyon etiladi. Bu esa o‘z o‘rnida psixologik variantini yuzaga chiqaradi.

Bunday voqelik ingliz she‘riyatida, ya‘ni Vilfred Ouen (Wilfred Owen) ijodida ham yaqqol seziladi. Uning ijodida urush mavzusi shunchaki tarixiy bir voqea yoki xotira emas, balki u chuqur hamda dahshatli sukunat, qismat zavolidir. Misol tariqasida uning “Futility” (“Behudalik”) marsiyasini olishimiz mumkin. Bunda navqiron jangchi siymosini quyosh nurlari ham uyg‘ota olmaganlik obrazi orqali o‘quvchiga urush – naqadar dahshat va qonli, ma‘nosiz hamda poyonsiz ekanligini yuksak mahorat bilan ochib beradi.

*Move him into the sun –
Gently its touch awoke him once...*¹⁴
Tarjimasi:

¹² Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 106

¹³ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – 83-b.

¹⁴ Owen, W. *The Collected Poems of Wilfred Owen*. London: Oxford University Press, 1963.

Uni quyosh nuriga olib o‘ting –

Quyoshning nuri bir paytlar uni uyg‘otgan edi...

Ushbu misralarda biz shuni tushunishimiz mumkinki, quyosh bu tiriklik ramzi, u umidning invariant ramzi sifatida ham qaraladi. Ammo shunday bo‘lsa-da, u endi o‘lik askarni uyg‘ota olmaydi. Veselovskiyga aytganidek, bu yerda jangdan qaytmaslik motivining invariant yadrosi mavjud. Biroq Tomashevskiy fikricha, bu yerda motiv tushunchasi variantiv shaklga ega. Chunki o‘lim sahnasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri jang orqali berilmayapti, balki tabiat kontrasti hamda jimlik orqali berilmoqda. Mana shu jihati V. Ouen she‘riyatidagi sokin fojia, Oripovning “Ayol” she‘ridagi muzday umr, sukut va kutish motivi bilan uyg‘unlashadi. Buni chuqurroq tahlil qilish uchun quyidagi misralarga diqqat qaratsak:

Yillar ham o‘tdilar, hamon u yolg‘iz,

Mung‘ayib termular botguvchi kunga.

Ey nomard tabiat, bormi senda his,

Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmi unga?!¹⁵

A.Oripov she‘riyatidagi ushbu misralar urush motivining Tomashevskiy ta‘riflagan variantiv shaklini namoyon etadi. Agar Vilfred Ouen asarlarida fojeliq urush maydonidagi bevosita o‘lim onining sokinligi orqali berilsa, Oripovda bu urushdan keyingi muzlagan vaqt va ayol sadoqati variantida namoyon bo‘ladi. Shoirning “*Ey nomard tabiat*” deya tabiatga murojaat qilishi, tabiatning inson dardi oldidagi befarqligi (botguvchi kunning go‘zalligi fonidagi yolg‘izlik) V. Ouen she‘riyatidagi estetik prinsip bilan birdir.

Ouen ushbu she‘rining davomida urushning mantiqsizligini yanada teranroq variant orqali ifodalaydi:

Was it for this the clay grew tall?

O what made fatuous sunbeams toil to break earth’s sleep at all!¹⁶

Tarjimasi:

Nahotki shu o‘lim uchun loy qad rostlagan edi?

Nega quyosh nurlari yer uyqusini buzishga behuda urindi?

Ushbu satrlarda urushning invariant yadrosi bo‘lgan hayotning barbod bo‘lishi g‘oyasi insonning yaralishi (loyning qad rostlashi) va quyoshning behuda mehnati kabi falsafiy obrazlar orqali variantlanadi. Ouen bu yerda urushni shunchaki o‘lim emas, balki butun borliq va yaratilish mantiqiga zid bo‘lgan behuda harakat varianti sifatida o‘quvchiga ko‘rsatib beradi. Bu tahlil A. Oripovning tabiatga qilgan “*nomard tabiat*” deya xitobi bilan variantiv jihatdan uyg‘unlik hosil qilib, har ikki shoirda ham urush motivining psixologik va falsafiy ko‘lami kengligini isbotlaydi.

Ya‘ni, har ikki shoir ham daxshatni tasvirlashda jang motivini emas, balki tabiat kontrasti va sukut kabi erkin motivlarni qo‘llash orqali fojeaning psixologik ko‘lamini kengaytirgan.

Urush motivining invariant va variant xususiyatlarini o‘rganishda Abdulla Oripovning “So‘nggi urush” she‘ri alohida ahamiyatga ega. Shoir bu she‘rida urushning nafaqat tarixiy voqea, balki insoniyat taqdiridagi abadiy jarohat ekanligini invariant yadro sifatida belgilaydi.

¹⁵ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – 83-b.

¹⁶ Owen, W. The Collected Poems of Wilfred Owen. London: Oxford University Press, 1963.

Motivning variantiv namoyon bo'lishi esa urushdan keyingi hayotning ruhiy manzaralarida, tinchlikning qadriga yetish va o'tmish fojialarini unutmaslik chorlovlarida yaqqol ko'rinadi. Bu yerda urush – o'tmish varianti bo'lsa, uning asoratlari – bugungi kunning ma'naviy varianti sifatida o'zaro ziddiyat (kontrast) hosil qiladi. Shoirning “So'nggi urush” she'ridan olingan ushbu to'rtlik urush motivining global va falsafiy qirralarini ochib berishda xizmat qiladi:

*Asrlar so'ngida yaralgan inson
Nahot endi o'zin aylasa barbod.
Nahot oxiratga yuz bursa jahon,
Nahot karomatlar haq chiqsa, nahot¹⁷*

Ushbu parcha urush motivining invariant mohiyatini insoniyatning o'zini o'zi vayron qilish xavfi va global halokat –oxirat tushunchasi bilan bog'liq holda namoyon etadi. Shoir bu yerda urushni shunchaki ikki tomonning to'qnashuvi emas, balki asrlar davomida shakllangan sivilizatsiyaning yakuni sifatida variantlaydi. Invariant yadro hisoblangan o'lim va halokat ushbu misralarda diniy-mifologik “karomatlar”ning amalga oshishi hamda asrlar so'ngida erishilgan yutuqlarning barbod bo'lishi kabi xavotirli obrazlar orqali yangicha badiiy variant kasb etadi. Bu tahlil urush motivining nafaqat tarixiy yoki ijtimoiy, balki mavjudlikka oid va bashoratli xususiyatga ega ekanligini, shoir esa an'anaviy fojia qolipini (invariant) zamonaviy global muammolar mezonidan o'tkazib (variant), uning miqyosini kengaytirganini isbotlaydi.

Insoniyatning umumiy taqdiri va sivilizatsiya halokati haqidagi quyidagi to'rtlikni tanlaymiz:

*Navoiy abasdir, Pushkin ham abas,
Rim yo'q, Samarqand yo'q, dahshat, alhazar!
Moziydan biror nom qolarmidi, bas,
Kelajakning o'zi bo'lmasa agar¹⁸.*

Ushbu badda urushning invariant mohiyati butun insoniyat madaniyati va tarixining yo'q bo'lib ketishi (antimadaniyat) sifatida namoyon bo'ladi. Shoir bu o'zgarmas fojiaviy yadroga “

Navoiy”, “Pushkin”, “Rim” va “Samarqand” kabi konkret madaniy markazlar hamda shaxslar ismlarini kiritish orqali uni o'ziga xos tarzda variantlaydi. Bu yerda urush motivi shunchaki jismoniy o'lim emas, balki kelajakning yo'qligi va o'tmishning (moziyning) ma'nosiz qolishi kabi falsafiy variantlar orqali fojeaning ko'lamini kengaytirib ko'rsatadi.

A.Oripovning “So'nggi urush” she'ridagi global xavotir va insoniyat sivilizatsiyasining inqirozi haqidagi qarashlari Vilfred Ouenning “Dulce et Decorum Est” asari bilan hamohanglik hosil qiladi. Ikkala shoirda ham urushning invariant mohiyati – hayotni va madaniyatni rad etuvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Oripov urushning mantiqsizligini hamda uning ofatligini madaniy obidalar va buyuk siymolar (Navoiy, Rim, Samarqand) taqdiri misolida variantlasa, Ouen bu mantiqsizlikni bevosita jang maydonidagi askar o'limi orqali shunday ko'rsatadi:

My friend, you would not tell with such high zest

¹⁷ Abdulla Oripov, Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – B. 44.

¹⁸ Abdulla Oripov, Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – B. 44.

*To children ardent for some desperate glory,
The old Lie: Dulce et decorum est Pro patria mori*¹⁹.

Tarjimasi:

Do'stim, sen shon-sharafga tashna bolalarga

Bu qadimiy yolg'onni bunchalik hayajon bilan aytmas eding:

“Vatan uchun o'lmoq – shirin va sharaflı”

Ushbu satrlar Oripovning “*Asrlar so'ngida yaralgan inson / Nahot endi o'zin aylasa barbod*” degan satrlariga g'oyaviy yaqin turadi. Ikkala shoir ham urushni shon-sharaf yoki qahramonlik deb atovchi an'anaviy badiiy variantlarni “*qadimiy yolg'on*” va “*mudhish falokat*” sifatida namoyon etadi. Oripov urushni kelajakni yo'q qiluvchi global ofat deb bilsa, Owen uni insonni majruh qiluvchi fiziologik azob varianti sifatida tasvirlaydi. Bu qiyos motivning invariant (halokat) yadrosi shoirning dunyoqarashi va badiiy uslubiga ko'ra qanday turlicha variantlanishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, motiv tushunchasi matnning ham funksional, ham tarixiy fundamentini tashkil etuvchi tizim. A.Veselovskiyning motivdagi invariant (o'zgarimas yadro) va B.Tomashevskiyning variant (badiiy o'zgarish) kabi qarashlari bir-birini rad etmaydi, balki yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. O'zbek va ingliz urush davri she'riyatida A.Oripov va Vilfred Owen ijodidagi urush motivlari invariant yadroga ega bo'lsa ham-ki, har bir ijodkor unga har xil badiiy jilo (variant) beradi. Demak, motiv – bu adabiy an'ana va ijodiy erkinlik o'rtasidagi oltin ko'pri bo'lib, asarning g'oyaviy -estetik qimmatini ta'minlovchi asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 408 с.
2. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избранные труды / Отв. ред. Ю. Д. Левин, Д. С. Лихачев. – Л.: Наука, 1977. – 407 с.
3. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.
4. Мелетинский Е.М. О литературных архетипах. – М.: РГГУ, 1994. – 136 с.
5. Пропп В.Я. Морфология волшебной сказки. – Л.: Academia, 1928. – 152 с.
6. Путилов Б.Н. Эпическое сказительство: Типология и этническая специфика. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1997. — 295 с. — (Исследования по фольклору и мифологии Востока).
7. Томашевский Б. В. Теория литературы. — Л.: Государственное издательство, 1925. — 232 с.
8. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 464 b.
9. Oripov A. Tanlangan asarlar: 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 493 b.
10. Owen W. The Collected Poems of Wilfred Owen. – London: Oxford University Press, 1963. – 191 p.
11. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 224 b.

¹⁹ Owen, W. *The Collected Poems of Wilfred Owen*. London: Oxford University Press, 1963.